



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




***Dastlabki ma’lumot
2024- yil yanvar-noyabr***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi***

Тел. 71-202-80-44 (45)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr oyi, foizda)




2024- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 89 235 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 319 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 88 916 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2023- 2024- yillar, foizda)



2024- yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **109,7 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 334 460,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 109,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 57 311,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,7%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 277 149,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,9%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 33 051,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,8 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr oyı)

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	334 460,2	109,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11 454,9	109,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	23 293,1	109,1
Buxoro	18 520,6	108,6
Jizzax	9 015,5	108,4
Qashqadaryo	22 320,4	108,5
Navoiy	12 694,3	109,5
Namangan	21 372,9	109,9
Samarqand	29 890,8	107,5
Surxondaryo	21 129,7	108,9
Sirdaryo	5 426,1	108,0
Toshkent	31 371,8	111,5
Farg'ona	29 080,0	108,9
Xorazm	13 261,6	108,7
Toshkent sh.	85 628,4	110,8

2024- yilning yanvar-noyabr oyida 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan respublikaning Toshkent (111,5 %) viloyati, Toshkent shahrida (110,8 %) va Namangan (109,9 %) viloyati chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,6 % bilan 85 628,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Sirdaryo viloyati 1,6 % bilan 5 426,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Toshkent sh.	85 628,4
Toshkent	31 371,8
Samarqand	29 890,8
Farg'ona	29 080,0
Andijon	23 293,1
Qashqadaryo	22 320,4
Namangan	21 372,9
Surxondaryo	21 129,7
Buxoro	18 520,6
Xorazm	13 261,6
Navoiy	12 694,3
Qoraqalpog'iston Resp.	11 454,9
Jizzax	9 015,5
Sirdaryo	5 426,1




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-noyabr oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 277 149,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 9,9 % ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,9 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 8,7 % ga o'sdi va 57 311,3 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 17,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi (97,1 %), Surxondaryo (96,5 %) va Xorazm (96,5 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 17,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahri (41,9 %), Toshkent (15,9 %), Samarqand (12,9 %) va Farg'ona (10,5 %) viloyatlarida kuzatildi.



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**

5 691,6

Andijon

6 810,8

Buxoro

9 007,2

Jizzax

5 935,5

Qashqadaryo

6 218,3

Navoiy

11 725,8

Namangan

6 915,2

Samarqand

7 046,6

Surxondaryo

7 279,8

Sirdaryo

5 895,4

Toshkent

10 207,9

Farg'ona

7 105,5

Xorazm


6 603,4

Toshkent sh.

27 909,3

2024- yilning yanvar-noyabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 9 020,5 ming so'm (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 107,4 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (27 909,3 ming so'm), Navoiy (11 725,8 ming so'm) va Toshkent (10 207,9 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar-noyabr)**

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	33 051,4	113,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 478,9	113,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 472,8	113,6
Buxoro	2 243,1	116,4
Jizzax	2 200,2	113,3
Qashqadaryo	2 497,5	108,8
Navoiy	934,8	119,8
Namangan	3 676,9	113,6
Samarqand	2 609,8	106,4
Surxondaryo	3 815,2	115,9
Sirdaryo	479,6	113,7
Toshkent	2 488,1	114,1
Farg'ona	2 338,6	115,9
Xorazm	2 558,1	114,6
Toshkent sh.	2 257,9	119,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2024- yil yanvar-noyabr)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd so'm (2024- yil yanvar-noyabr)**



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 33 051,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 113,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 17 177,8 mlrd so'mni (118,9%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 15 873,6 mlrd so'mni tashkil etdi (108,7 %).












2024-yilning yanvar-noyabr oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 17 177,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (8 209,1 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>8 209,1 mlrd so'm</p>  <p>46,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>2 049,7 mlrd so'm</p>  <p>11,7 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>1 793,5 mlrd so'm</p>  <p>10,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>784,0 mlrd so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>899,0 mlrd so'm</p>  <p>5,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>594,4 mlrd so'm</p>  <p>3,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>622,7 mlrd so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>744,7 mlrd so'm</p>  <p>4,3 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>422,9 mlrd so'm</p>  <p>2,4 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>412,8 mlrd so'm</p>  <p>2,4 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>273,4 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>698,0 mlrd so'm</p>  <p>4,0 %</p>

2024- yilning yanvar-noyabr oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 15 873,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 12 510,3 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 2 583,6 mlrd. so'mni, otlar – 447,6 mlrd so'mni, parrandalar – 63,5 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>7 381,7 mlrd so'm</p>  <p>47,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>3 011,1 mlrd so'm</p>  <p>19,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>2 116,7 mlrd so'm</p>  <p>13,6 %</p>	
<p>Qo'ylar</p> <p>2 231,2 mlrd so'm</p>  <p>14,3 %</p>	<p>Otlar</p> <p>447,6 mlrd so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>352,5 mlrd so'm</p>  <p>2,3 %</p>	
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>35,8 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>23,5 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyونlar</p> <p>2,9 mlrd so'm</p>  <p>0,02 %</p>	
<p>Qushlar</p> <p>1,3 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>			

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 25 571 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 80 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 25 491 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	157 307,1	113,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 715,3	113,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	10 999,8	113,1
Buxoro	8 657,4	115,0
Jizzax	4 882,2	113,2
Qashqadaryo	15 192,2	111,9
Navoiy	4 589,2	113,8
Namangan	15 963,1	114,1
Samarqand	17 017,4	113,7
Surxondaryo	7 202,4	110,4
Sirdaryo	3 147,4	112,6
Toshkent	11 092,5	113,1
Farg'ona	16 146,3	113,1
Xorazm	9 052,5	113,8
Toshkent sh.	23 649,5	113,4

2024- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 157 307,1 mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
O‘zbekiston Respublikasi	113 594,0	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 313,7	2,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	5 852,3	5,2
Buxoro	4 315,5	3,8
Jizzax	12 391,1	10,9
Qashqadaryo	3 313,9	2,9
Navoiy	3 535,4	3,1
Namangan	3 880,2	3,4
Samarqand	4 170,4	3,7
Surxondaryo	1 720,6	1,5
Sirdaryo	507,1	0,4
Toshkent	5 568,2	4,9
Farg‘ona	6 153,6	5,4
Xorazm	5 433,2	4,8
Toshkent sh.	54 438,7	47,9


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Toshkent shahri (54 438,7 mlrd so‘m), Jizzax (12 391,1 mlrd so‘m) va Farg‘ona (6 153,6 mlrd so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)




2024- yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 113 594,0 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,6 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 46 981,3 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 147,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 66 612,7 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 111,1 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 368 548,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

26,5 %

97 540,1 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

73,5 %

271 008,2 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 271 008,2 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 73,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	368 548,3	111,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 571,6	114,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	10 824,9	110,2
Buxoro	14 909,7	106,9
Jizzax	4 054,2	146,2
Qashqadaryo	7 038,5	108,4
Navoiy	3 894,3	107,2
Namangan	14 988,9	112,7
Samarqand	22 348,4	118,3
Surxondaryo	8 711,1	107,5
Sirdaryo	5 272,6	107,8
Toshkent	41 811,9	114,9
Farg'ona	20 206,3	109,3
Xorazm	7 249,4	110,0
Toshkent sh.	201 666,5	109,0

2024- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 48 957 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 339 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 48 618 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (179,9 %), Samarqand (147,1 %) va Toshkent (137,5 %) viloyatlarida kuzatildi.